

O`ZBEK TURIZMINING RIVOJLANISHI

Rahmatullayeva Nigina Elyorovna¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada o`zbek turizmini takomillashtirish bo`yicha fikrlar bayon etilgan. Turizm paydo bo`lishining asosiy sabablari odamlarning savdo-sotiq, dam olish va hatto dunyo qarashini kengaytirish maqsadida sayohat qilishga bo`lgan ehtiyojlari uchundir. Ushbu yo`nalishning rivojlanishi insonlarning fikrlash jarayonining o`shishiga, sayohat qilgan joylarining tarixi haqida ko`plab ma'lumotlarga ega bo`lishiga ta`sir qiladi. Shu sababdan mazkur sohani yanada rivojlantirishga ko`proq e`tibor qaratish kerak. Yurtimizda sayyohlarning diqqat e`tiborini tortadigan, ko`plab tarixiy ziyoratgoh joylar mavjud.

Kalit so`zlar: turizm, rivojlanishi, ipak yo`li, tarixiy joylar, kitoblar, sayyohlik, ziyoratgoh.

KIRISH

``Turizm`` so`zining o`zi 19-asr boshlarida ingliz tilida ``tur`` so`zi va ``ism`` qo`shimchasidan olingan bo`lib, sayr qilish yoki zavqlanish uchun sayohat qilish faoliyatini bildiradi. Turizm tushunchasi qadimgi davrlarda odamlarning savdo, diniy ziyorat, kashfiyot va ta`lim kabi turli sabablarga ko`ra sayohat qilganlarida paydo bo`lgan. Turizmning dastlabki qayd etilgan namunalaridan biri diniy maqsadlarda va ota-bobolarining qabrlarini ziyorat qilish uchun piramidalarga sayohat qilgan qadimgi misrliklarga borib taqaladi. Jamiyatlar rivojlanib, transport takomillashgani sayin, turizm odamlar uchun qulayroq bo`lib, oxir-oqibat biz bugungi kunda ko`rayotgan zamonaviy turizm sanoatiga olib keldi. Movarounnahrda ilk sayyohlarning safarlari Amir Temur va Temuriylar davrida faollashgan. Mamlakatimiz Sharq va G`arbni bog`lovchi tarixiy savdo yo`li bo`lgan ipak yo`lida joylashganligi sababli sayohatchilarni o`ziga tortadigan boy tarixga ega.

O`zbekistonda zamonaviy turizm industriyasi 1991-yilda mustaqillikka erishgandan so`ng yanada jadal rivojlana boshladi. Hukumat 2000-yillarda mamlakatning madaniy merosi, tarixiy obidalari va tabiiy go`zalligini ta`kidlab, turizmni faol rivojlantirishni boshladi. ``Turizm`` so`zining O`zbekistonda o`ziga xos qo`llanishiga kelsak, bu so`z 20-asr oxirlarida sanoatning rivojlanishi haqida rasmiy hujjatlar, marketing materiallari va sohaning rivojlanishi haqidagi munozaralarda ko`proq qo`llanila boshlandi va 21-asr boshlarida ham o`z ahamiyatini qozonishda davom etdi.

ASOSIY QISM

Butunjahon Turizm Tashkiloti-rivojlanayotgan mamlakatarda turizmni rivojlantirishga alohida e`tibor qaratadi. Turizm rivojlanishiga ta`sir ko`rsatuvchi omillar qarindoshchilik aloqalari, xalqaro biznes va anjumanlar, aholining sayohatga bo`lgan qiziqishlari hisoblanadi. O`zbekistonda hozirgi kunda borib ko`rish, ziyorat qilish, zavq olish mumkin bo`lgan turistik joylar ko`p. Samarqand, Buxoro, va Xiva shular qatoridandir. Muqaddas Buxoro O`zbekistonning sayyohlik durdonalaridan biri bo`lib YUNESKO ning Butunjahon merosi ro`yxatiga kiritilgan. Shaharning Yoshi 2500 yildan oshgan.[1]

¹ Andijon davlat chet tillari instituti talabasi Ingliz tili va adabiyoti fakulteti 1-bosqich talabasi

E-mail: niginarahmatullayeva82@gmail.com



Buxoroda bo`lmaganlar ko`p narsani yo`qotadilar chunki bu yerda ko`plab tarixiy va diqqatga sazovor joylar bo`lib ulardan bittasi Poi-Kalon me`moray yodgorligi Shanxay Hamkorlik Tashkiloti tomonidan ``sakkizinchi mo`jiza`` sifatida tan olingan. Shaharning asosiy va eng baland ko`tarilgan inshooti – 1127 yilda qurilgan Kalon minorasidir. Bu har tomonlama komil muhandislik inshooti, Buxoroning sathidan 47 metrga ko`tarilib turgan ulkan minora hisoblanib O`zbekistonda eng baland bo`lgan ushbu minora tepaga chiqqan sari ingichkalashib boradi, uning dumaloq aylanasidan o`rab turgan halqalar turli rangdagi sirlangan g`ishtchalar bilan bezatilgan. Ming yillik tarixga ega bo`lgan Buxoro shahri nafaqat o`zining masjidu madrasalari, maqbaralari bilan, balki saroylari, hashamatli uylar, karvon-saroylar, hammomlari va ko`p gumbazli savdo majmualari bilan ham mashhur. Aynan mana shunday e`tiborga sazovor qadimiy binolarimizni ko`rish uchun har yili mingdan ortiq sayyohlar tashrif buyurmoqda. [2] Bundan tashqari Ark qal`asi, Somoniylar maqbarasi, Mirzo Ulug`bek madrasasi, Miri –Arab masjidi ham buyuk bobokalonlarimizdan meros bo`lib qolgan tarixiy joylar hisoblanadi. Samarqand esa hozirgi kunda sayyohlarga nafaqat bir necha asrlik tarixiy obidalarini ko`rish, balki go`zal tabiati, mazmunli dam olish, sayr qilish, urf-odat va an`analari bilan yaqindan tanishish, o`zining milliy taomlaridan tatib ko`rish, sharqona bozorlarda xaridlarni amalga oshirish, qadimgi va muqaddas joylarini ziyorat qilish imkoniyatlarini bermoqda. Albatta, Samarqand boy tarixga ega va ko`plab diqqatga sazovor joylari mavjud bo`lgan shahardir. Qadimiy shaharning eng ko`zga ko`ringan tarixiy joylari Registon maydoni bo`lib, Samarqandning yuragi deb ataladi. Bu yerda uchta madrasi mavjud bular: Islom maktablari, Ulug`bek madrasasi, Tilya-kori madrasasi va Sher-Dor madrasalaridan iboratdir. Samarqand shahrida ko`plab masjidlar mavjud bo`lib eng qadimiy va mashhuri Bibi-Xonim masjidi Temur bobomiz tomonidan xotini sharafiga qurilgan bu masjid bir vaqtlar islom olamidagi eng katta va eng muhtasham masjidlardan biri bo`lgan. Shoh-i-Zindaga kelsak bu maqbara va ziyoratgohlar majmuasi Samarqanddagi eng muhim tarixiy va me`moriy obidalardan biri bo`lib, ayrim inshootlari XI asrga oid. "Tirik podshoh" degan ma`noni anglatuvchi Shoh-i-Zinda ushbu shaharning ajoyib nekropolidir. Bu yer Samarqandning eng muhim va go`zal tarixiy joylaridan biri. Majmua tor ko`cha bo`ylab joylashgan maqbaralar va boshqa marosim binolari to`plamidir. Ushbu qadimiy joy murakkab dizayn va yozuvlarni o`z ichiga olgan ajoyib plitka ishi bilan sayohatchilarning e`tiborini tortadi. Samarqandga tashrif buyuruvchilar ko`pincha Shoh-i-Zindani tarixiy, diniy va estetik ahamiyati tufayli shaharning eng maftunkor va unutilmas diqqatga sazovor joylaridan biri deb bilishadi.[3] Shuningdek, Zarafshon milliy bog`ida tashkil etilgan ekoturizm maskani, milliy kulolchilik buyumlar ustaxonasi ham sayyohlar bilan gavjum bo`lmoqda. O`zbekistonda turizmni rivojlantirishda ko`plab chora-tadbirlar qo`llanilmoqda shu borada O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 5-noyabrdagi 904- son ``Har yilgi Ipak yo`lida turizm`` Toshkent halqaro turizm yarmarkasini tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risidagi`` qarori mavjud.

MUHOKAMALAR

Ushbu qonundan so`ng Farg`ona vodiysining turizmiga bo`lgan e`tibor yanada kuchaydi. O`zbekistonnig qoq markazida joylashgan Farg`ona o`zining boy tarixi, jo`shqin madaniyati va hayratlanarli manzaralari bilan maftunkor sayyohlar uchun yashirin marvarid sifatida namoyon bo`ldi. Ushbu mintaqada turizmning rivojlanishi o`ziga xosligi, jozibasi, tarixiy hikoyalar, madaniy xilma-xillik va ilg`or tashabbuslardan tashkil topgan manzarani aks ettiradi.

Pomir-Oloy va Tyan-Shan tog` tizimlari bo`ylab joylashgan qadimiy o`lka Farg`ona madaniy meros gobelniga ega bo`lib asrlar davomida sivilizatsiyalar qaynab turgan joy. Farg`onada turizmning zamonaviy rivojlanishida O`zbekiston Turizm boshqarmasining strategik qarashlari ko`pdir. Ularning mintaqaning noyob diqqatga sazovor joylarini namoyish etishga intilishi Farg`onani jahon turizm bosqichiga olib chiqdi. Tarixiy joylarni saqlash, madaniy tadbirlarni targ`ib qilish va mehmondo`stlik



xizmatlarini yahshilashga qaratilgan tashabbuslar haqiqiy tajriba izlayotgan sayohatchilarni jalb qilishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonning boy madaniy merosiga bag'ishlangan kitoblar Farg'onaning go'zal tarixini ochib beradi va qadimiy sivilizatsiyalar, sulolalar va mintaqaning o'ziga xosligini shakllantirgan madaniyatlarning murakkab uyg'unligi haqida hikoya qiladi. Shu jumladan "Boburnoma" asarida bu shaharning ulkan qo'rg'oniga Movaraunnahrda faqat Samarqand va Kesh singari kata shaharlarning qo'rg'onigina barobar kela olishi, uch darvozasi borligi va shaharning janub tarafida ulug'vor ark qad ko'targanligi qayd etilgan.[4] Bunday adabiyotlar Farg'onaning tarixiy merosiga qiziquvchan sayohatchilarni o'ziga jalb etayotganidan dalolat beradi.

Sayyohlik qo'llanmalari raqamli va bosma nashrlarda Farg'onaning maftunkor diqqatga sazovor joylarini yorqin tasvirlaydi. Farg'ona vodiysidagi kichik Marg'ilon qishlog'i mamlakat ipak merosi ortidagi joy. Ip yigirish jarayonini ko'rsatadigan ko'plab fabrikalar bor, lekin Yodgorlik ipak fabrikasi sayyohlarga ipak qanday tayyorlanishidan, an'anaviy ipak to'qish usullaridan tortib yakuniy mahsulotlarga o'rgatadi.[5]

Jahon sayyohlik tashkiloti "UNWTO" Eng yahshi sayyohlik qishlog'i nomi natsiyasi nafaqat rivojlangan hududlar, balki o'z qadriyatlarini saqlab qolgan aholi punktlariga ham e'tiborni qaratish, an'analarni targ'ib qilish maqsadida 2021-yilda YUNVTO tomonidan ta'sis etilgan,-deydi Turizm qo'mitasi boshqarmasi boshlig'i Mansur Melikov. O'zbekistonda "Eng yahshi sayyohlik qishlog'i" nominatsiyasi bo'yicha beshta nomzod bor; Samarqand viloyatidagi Konigil, Navoiy viloyatining Sentob, Surxandaryo viloyatining Sangardak, Jizzah viloyatining Uhum, Farg'ona viloyatining Avval qishloqlari.[6] Bunday hisobotlarda mintaqaning turizm salohiyati tahlil qilinib, asosiy o'sish ko'rsatkichlari, barqaror amaliyotlar va sanoat duch keladigon muammolar yoritilgan. Ushbu ma'ruzalardan olingan ma'lumotlar Farg'onaning jahon turizm landshtaftidagi o'rnini tushunishga yordam beradi.

Ma'lumki sayohat uchun kelgan sayyohlar eng avvalo qolish uchun qulay mehmonxona qidirishadi. Farg'ona vodiysida ko'plab mehmonxonalar mavjud biroq O'zbekiston bo'ylab 3 yulduzli mehmonxonalar 120 tani, 4 yulduzli mehmonxonalar 24 tani, 5 yulduzli mehmonxonalar esa 3tani tashkil etmoqda bu esa past ko'rsatgich.[7] Statistik ma'lumotlar Farg'ona shahrining mahalliy va xalqaro sayohatchilar orasida mashhurligi ortib borayotganidan dalolat beradi. Shu sababdan barcha sharoitlarga ega bo'lgan hashamatli mehmonxonalarni ko'paytirish sayyohlar uchun qulay sharoit yaratib berish hisoblanadi.

NATIJALAR

Yurtimizda turizm sohasida juda ko'p yangiliklar kuzatilmoqda. Marketing va reklama: O'zbekiston o'zining turistik ob'yektlarini xalqaro miqyosda faol ravishda bozorga chiqarib, sayyohlik yarmarkalarida va ko'rgazmalarida qatnashmoqda, shuningdek, mamlakatning noyob takliflari haqida xabardorlikni oshirish uchun bag'ishlangan sayyohlik kampaniyalarini o'tkazmoqda. Shuningdek Viza islohotlari: Hukumatimiz sayyohlarning O'zbekistonga tashrif buyurishini osonlashtirib, tanlangan millatlar uchun elektron vizalar va vizasiz rejimlarni joriy etish orqali viza jarayonlarini soddalashtirdi. Bu esa har yili yurtimizga tashrif buyiruvchi sayyohlarning sonini ortishiga sabab bo'lmoqda. O'zbekiston o'zining sayyohlik takliflarini tarixiy va madaniy obidalardan tashqari, sarguzasht turizmi, ekoturizm va qishloq turizmini o'z ichiga olgan holda turli xil mehmonlarni jalb qilishni maqsad qilgan.

2019-yilda Vazirlar Mahkamasining 433-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomga asosan mehmonxonalar biznesini rivojlantirishga katta urg'u berildi. Unga ko'ra, yangi qurilayotgan 3 yulduzli mehmonxonalar uchun Davlat byudjetidan 40 million so'm, 4 yulduzli mehmonxonalar uchun esa 65 million so'm kompensatsiya ajratish ko'zda tutilgan. 2019-yilda sayyohlar uchun 277ta yangi mehmonxona qurib, ishga tushirildi.



Turizmni rivojlantirish davlat qo`mitasining yakuniy hisobotiga ko`ra, 2018-yilda O`zbekistonga 5,3 mln nafar sayyoh tashrif buyurgan. 2017-yilda ularning soni 2,69 mln nafarni qayd etgan, ya`ni sayyohlar soni bir yilda 97 foizlik o`shishni ko`rsatib, ikki baravarga oshgan.[8] O`tgan yil davomida mamlakatda transport infratuzilmasini rivojlantirish yo`lida qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, turistik avtobus xavfsizlik talablariga javob bergan taqdirda kuzatuv majburiyatidan ozod qilindi.

Ta`kidlash joizki, o`tgan davrda turizmni rivojlantirishga kata e`tibor qaratilishi natijasida O`zbekiston turli nufuzli xalqaro reytinglarda yuqoriladi, jahon ommaviy axborot vositalarida mamlakat nomi tez-tez qayd etilishi kuzatildi. Bu esa O`zbekistonning turistik salohiyat targ`ibotini kuchaytirish yo`lida xizmat qiladi. Shuningdek, ma`lum qilinishicha, "O`zbekiston bo`ylab sayohat qil" nomli ichki turizmni rivojlantirishga yo`naltirilgan dastur doirasida mahalliy sayyohlar sonini ham deyarli ikki baravarga – 14 milliondan 25 milliongacha oshirish ko`zda tutilmoqda. Bu sa'y-harakatlar O`zbekistonning gullab-yashnayotgan turizm sektorini rivojlantirish va mamlakatni tarixiy, madaniy va asl tajribalarni izlayotgan sayohatchilar uchun tashrif buyurishi joiz bo`lgan manzil sifatida ko`rsatishga sodiqligini aks ettiradi. [9]

XULOSA:

Sòz òrnida shuni aytish kerakki, turizm har bir davlatning rivojlanishi uchun katta ahamiyatga egadir. O`zbekiston taraqqiyotda davom etar ekan u sarguzashtchi sayohatchilarni òzining xazinalari, merosi, tarixi va abadiy jozibasi bilan maftun etishga chorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O'zbekiston Sayohat Turistik Ma'lumot Markazi. Buxoro - Islom madaniyati poytaxti. Olingan: <https://uzbekistan.travel/uz/i/buxoro/>
2. O'zbekiston Sayohat Turistik Ma'lumot Markazi. (2022, avgust 29). Poi Kalon me'moriy ansambli - Shanxay Hamkorlik Tashkilotining "Sakkizinchi mo'jizasi!" Olingan: <https://uzbekistan.travel/uz/o/poi-kalon-memoriy-ansambli-shanxay-hamkorlik-tashkilotining-sakkizinchi-mojizasi/>
3. Journal of Nomads. (2024, yanvar 15). 2024-yil O'zbekistonda turizm uchun eng yaxshi 26 joy qayer? Cynthia tomonidan tayyorlangan. Olingan: [https://www.journalofnomads.com/places-to-visit-in-uzbekistan/boburnoma bo'yicha](https://www.journalofnomads.com/places-to-visit-in-uzbekistan/boburnoma-bo'yicha)
4. O'zbekiston Daily. (2023, oktyabr 14). UNWTO: Umumiy Assambleya tarkibida "Eng yaxshi qishloqlar" mukofot marosimi Samarqandda o'tkaziladi. UzDaily. <https://www.uzdaily.uz/en/post/83981>
5. TourCentralAsia Sayohat Ma'lumotlari va Blogi O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston uchun. O'zbekiston Turizm Sanoati Statistikasi 2024. Olingan: <https://tourcentralasia.com/uzbekistan/uzbekistan-tourism-industry-statistics/>
6. kun.uz (2019, yanvar 6). "6 yil uchun rejalar. Aziz Abduhakimov prezidentning turizm bo'yicha farmon va qaroriga sharh berdi." Olingan: <https://kun.uz/uz/56098617#!>
7. Tolibjonovich, M. T. (2021). Eastern Renaissance And Its Cultural Heritage: The View Of Foreign Researchers. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2(05), 211-215.

